

O'RTA OSIYO BRONZA DAVRI YODGORLIKLARI

Quvonchova Nargiza Choriyevna

Osiyo Xalqaro Universiteti

Tarix ta'lim yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14761552>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'rta osiyo hududidagi bronza davriga oid yodgorliklar va dafn inshootlari ilmiy tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: apadan, bronza, zikkurat, ibodatxona, qabr- qo'rg'on, kenataf, xaoma.

Bronza quyish texnologiyasi dastlab qadimgi sharqda xususan Mesopotamiyada mil.avv. IV ming yillikning oxirida vujudga kelgan. Yevrosiyaning chekka hududlarida bronza davri nisbatan kechroq boshlanib mil.avv. I ming yillikning o'talarigacha davom etgan. Yevrosiyo hududida bronza davrini mil.avv. III-II ming yilliklar doirasida sanalash qabul qilingan.

O'zbekiston hududida esa bu davr mil.avv. II yillikning I choragida boshlanib. Mil.avv. VIII asrlargacha davom etadi. Bronzaning tarkibi Mis va Qalay qorishmasidan iborat bo'lgan. Eng yaxshi Bronzaning tarkibida 90% Mis va 10% Qalay bo'lgan. Bronza qurollari qattiq va ularga ishlov berish oson bo'lganligi uchun Mis qurollarini siqib chiqaradi. Shuningdek bronza misga nisbatan past haroratda erigan. Mis 1084 gradus haroratda erisa, bronza 700-900 gradusda eriydi.

Bronza davriga oid O'rta osiyo hududida ko'plab yodgorliklar mavjud. Masalan: Murg'ob vohasining bronza davri arxeologiyasi. Afg'onistondan oqib keladigan Murg'ob daryosi Qoraqum cho'lida Amudaryoga yetmasdan qurib qoladi. Daryoning quyi oqimidagi yerlar qadimdan dehqonchilik uchun juda qulay bo'lgan. Bu yerlareneolit davrining oxirida Geoksur vohasidan ko'chib kelgan aholi tomonidan o'zlashtiriladi. BMAK (Baqtriya va Marg'iyona arxeologik majmuasi) atamasi qo'llaniladi. BMAK ning bronza davri xronologiyasi mil.avv.1800/1700-1100 yillar doirasida belgilangan. Oxirgi o'tkazilgan radiocarbon tekshirishlari mazkur xronologik ko'rsatkichni taxminan 500 yilga, ya'ni mil.avv. 1500 yillikka qadimiylashtiradi. Murg'ob daryosining bronza davri arxeologik yodgorliklari alohida ariqlar bilan sug'orilgan 8 ta mikrovoha hududida tarqalgan.

KELELI (markazi –KELELI I).1-To'g'aloq I. 2. Taxirboy. 3. Odambosan I.

GONUR(GONUR).1. Ajiquyi. 2. Toip. 3.Avchin.

Murg'ob vohasidagi yodgorliklar ilk shahar shaklidagi manzilgohlar, qal'a-qo'rg'onlar dehqonchilik qishloqlari, ishlab chiqarish va diniy inshoot- ibodatxona hamda dafn inshootidan iborat. Vohadagi eng yirik yodgorlik GONURTEPA manzilgohi hisoblanadi.

Manzilgohning asosiy qurulish imoratlari qal'a va uning yaqinidagi ibodatxona majmuasidan iborat. Qal'a ikki qator mudofaa devoir va to'g'ri to'rtburchak burjlarga ega.

Devorlar orasidagi yo'lakcha orqali burjlarga kirilgan. Qal'aning ichkarisidagi kvadratsimon shakldagi (120x125 m) dunyo tomonlariga moslab qurilgan saroy majmuasi asosiy o'rin tutadi. Saroyning atrofi mudofa devori bilan o'rab olingan. Ichkaridagi imoratlari juda zich qurilgan. Saroy yaqinida mahalliy hukmdor va saroy amaldorlari uchun xizmat qilgan ibodatxona joylashgan. Shaharda uy-joy imoratlarim, ishlab chiqarish inshootlari joylashgan. Shaharning sanitariya qoidalariga qat'iy amal qilingan. Bu yerda shaharga spool quvurlarda ichimlik suvi olib kirilgan. Uy-joylar aholining jamiyatda tutgan mavqeyiga qarab bir va ko'p xonali bo'lgan.

Murg'ob vohasining boshqa bir yirik manzilgohi TO'G'ALOQ I hisoblanib, umumiy maydoni 12 gektardan iborat. Manzilgohning markazida balandligi 4 m tag kursi ustida qurilgan inshoot joylashgan. Manzilgoh To'g'aloq mikrovohasining markazi hisoblangan. KELELI II va KELELI IV yodgorliklari baland tag kursi ustida dunyo tomonlariga moslab barpo etilgan kvadrat shaklidagi manzilgohlar bo'lib, ularning atrofi ikki qator devori bilan o'rab olingan, o'rtasida yo'lakcha mavjud. Mudofaa devori tashqi tomondan burjlar bilan kuchaytirilgan. Bu manzilgohlar bronza davri aholisining qishloqlari bo'lgan. Murg'ob vohasi aholisi orasida olov va muqaddas ichimlik kultlari asosiy o'rinni egallagan. Keyingi davr tarixidan ma'lumki muqaddas ichimlik kulti bevosita mahalliy xalq orasida tarqalgan mitraga sig'inish odati bilan bog'liq. O'rta Osiyoning qadimgi aholisi Mitraga sig'inishda quyosh xudosi sifatida qaragan. Qadimgi xalqlar tassavvurida mitra quyosh chiqishning sherigi sifatida aks etgan. Avestoda Mitra yomg'irni chaqiradi, o'simliklarning o'sishiga va butun hosilga yordam berishi to'g'risida yozilgan.

Baqtriyaning bronza davrida faoliyat yuritgan o'troq dehqonchilik manzilgohlari dastlabki o'rganilgan yodgorliklarga nisbatan janubda –DASHTLI, shimolda esa – SOPOLLI madaniyati nomlari bilan yuritilgan. Dashtli vohasidagi Dashtli III manzilgohi muhim o'rin egallaydi. Dashtli II manzilgohi aylana shakldagi ibodatxona va kvadrat shakldagi saroy ibodatxonadan iborat ikkita majmuani tashkil etadi. Ibodatxona majmuasi ikki qator mudofaa devor i bilan o'rab olingan. Saroy ibodatxonasi esa kvadrat shaklda barpo qilingan. Janubiy Baqtruyaning bronza davri yodgorliklari orasida dafn inshooti ham muhim o'rin egallaydi. Dafn inshootlari lahat (Katakomba) qabrlardan iborat. Murg'ob vohasidan kekgan dehqonlar asosiy o'rinni egallaganlar.

Ular dastlab Sherobod cho'lini o'zlashtirib SOPOLLI qishlog'ini tashkil qilganlar. Keyinchalik sopollitepaliklar asta-sekin KO'HITONG va BOYSUN tog' etaklari bo'ylab shimoli-sharqqa siljiganlar va Sherobod daryosi bo'ylab dehqonlarning qishloqlarini tashkil qilganlar.

SOPOLLI madaniyati 5 ta xronologik bosqichga bo'linadi.

1. SOPOLLI bosqichi – mil.avv. 2150-1900 yillar.
2. JARQO'TON bosqichi – mil.avv. 1900-1600 yillar.
3. KO"ZALI bosqichi – mil.avv. 1600- 1450 yillar.
4. MO"LALI bosqichi – mil.avv. 1450-1250 yillar.
5. BO"STON bosqichi mil.avv. 1250-1000 yillar.

Surxon vohasining Muzrabot cho'li hududidagi Ulanbuloqsoy o'zanida joylashgan Sopollitepa manzilgohida o'rganilgan. U Termiz shahridan 70 km shimoliy – g'arbida joylashgan.

Albaum tomonidan 1968 – yilda ro'yhatga olingan. Tadqiqot ishlari bilan 1969-1974 yillarda A.Asqarov shug'ullangan. Ushbu madaniyatga tegishli 20 dan ortiq yodgorliklar topilgan.

Sopollitepa kalidorsimon bloklar Sistema asosida qurilgan uch qator mudofaa devor bilan o'rab olingan yirik qishloq bo'gan. Ununing umumiy maydoni 4 gektarga yaqin. Katta qismi paxta maydoniga qo'shib yuborilgani sababli, faqatgina uning markaziy qal'a qismi saqlanib qolgan. U kavadrat 82x82 metr bo'lgan istehkomdir. Qal'a mudofaa devorlari qalinligi 2 metr bo'lib, somon qo'shilgan xom g'ishtdan qurilgan.

Sopollitepada 3 ta qurulish bosqichi aniqlangan Sopollitepaning 2 ta qurulish davri bir xil materiallar bergan. Yuqori 3- qurulish davrida bazi o'zgarishlar Jarqo'ton yodgorligining quyi qatlami materiallariga o'xshaydi. Shuning uchun Sopollitepadagi 2 ta quyi qatlam "sopolli bosqichi", uning yuqori qatlami " Jarqo'ton" bosqichi deb yuritiladi. Birinchi qurulish bosqichiga oid 30 ta uy, ikkinchi qurulish bosqichiga oid 61 ta uy va uchinchi qurulish bosqichiga oid 47 ta uy qoldiqlari ochilgan. Olimlar fikricha qishloq aholisi 155-315 kishidan iborat bo'lgan.

Sopollitepa manzilgohida jami 138 ta qabr o'rganilgan. Ularning 125 tasida bitta, 13 tasida juft mayit, jami 158 ta mayitlari joylashgan. Shuningdek 4 ta qabrdan hayvon dafn qilingan, 6 tasi esa kenatafdan iborat.

Jarqo'ton yodgorligi sopollitepaliklar asos slogan ilk shahar hisoblanadi. U Bo'stonsoyning chap sohilida joylashgan bo'lib, 100 gektarni tashkil etadi. Bu yerning aholisi ham dehqonchilik bilan shug'ullanib kamida 500 yil shu yerga yashaganlar.

REFERENCES

1. Ibragimov R.Z arxeologiya.
2. Egamberdiyeva N.A.
3. Ochildiyev F.B. Tarixiy o'lkashunoslik.
4. Ibragimov R.Z O'rta Osiyo arxeologiyasi.